

# **PEDAGOGIK MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**Maxsus son**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## MUNDARIJA

Nodir YADGAROV. Bo'lajak chizmachilik o'qituvchilarida kasbiy ko'nikmalarni shakkantirishda axborot texnologiyalarning o'mi .....	8
Sanjar AZIMOV. Tasviriy san'atda sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati .....	11
Dilshod MAMATOV. Muhandislik grafikasi fanini o'qitishning innovation usullari (kompyuter grafikasi asosida) .....	14
Tolib SOBIROV, Qavmuddin OMONOV. Muhandislik grafikasini o'qitishda me'morchiлик obidalaridagi geometrik yasashlarning tarbiyaviy ahamiyati .....	18
Anif KADIROV, Mehriniso QAHHOROVA. Yoshlarni kasb-hunarga yo'nalturishda milliy qadriyat va an'analarning o'mi .....	21
Shuhrat G'ULOMOV. Tarixiy janarda O'zbekiston tasviriy san'ati rivoji .....	24
Shodijon BAKAYEV, Sherozjon SHOKIROV. Badiiy bezash ishlarida ranglarni to'g'ri qo'llash tartibi va ularning emotsiyonal ta'siri .....	27
Qoryog'di JUMAYEV. Kasb-hunar ta'limi va tarbiya berish jarayonida sharq rivoyatlaridan foydalanish metodlari .....	30
Muzafar AVLIYAKULOV. Tasviriy san'at o'qituvchisi tashkilotchi, metodist va ijodkor .....	32
Гульвора ХАКИМОВА. Традиционная одежда узбекских женщин .....	34
Viloyat TUXSANNOVA. Kashtachilik san'ati .....	37
Muhayyo AZIMOVA. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati turlari va ularning o'ziga xos tomonlari .....	41
Sanjar AZIMOV, Maftuna SULAYMONOVA. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida tasviriy san'atning zamonaivi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish metodikasi .....	44
Shodijon BAKAYEV, J.B.NE'MATOV. Interyerni sharqona qirma uslubda bezatish texnologiyasi .....	47
Oybek SHOMURODOV. O'rta maktab tasviriy san'at fanida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish .....	50
Aziza MUSINOVA. Amaliy bezak san'atida tasvir va kompozitsiyaning tutgan o'mi .....	54
Akmal AMINOV. Autocad grafik dasturida 3d o'lchamli obyekt nuqtalarining koordinatalarini kiritishning o'ziga xos usullari .....	57
Gulshod OSTONOVA. Tasviriy san'at darslarida borliqni idrok etish hamda o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini oshirish .....	61
Нозима КАДЫРОВА, Паризод РОЗИКОВА. Особенности национального платья жительниц Бухары в XIX веке как элемент изучения истории региона .....	64
Nigora IBATOVA. XIX-XX asr O'zbekiston rassomlari ijodida manzara janri .....	67
Shahnoza IBADULLAYEVA. "Manzara janrida ijod qilgan rassomlar asaridan nusxa ko'chirish" modulini o'qitishda innovation ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati .....	71
Avaz SHUKUROV, Nargiza ASLANOVA. Kulolchilik - xalq amaliy bezak san'atining bir turi sifatida .....	76
Shodijon BAKAYEV, M.S.TO'RAYEVA, D. USMONOV. Amaliy san'atda ranglardan foydalanish va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....	79
Nafisa AVLIYAKULOVA. Bo'lajak o'qituvchi shaxsiyatini rivojlantirishda zamonaivi texnologiyalaridan foydalanish .....	83
Sherali AVEZOV. Amaliy sanat tarixi va uning turlari .....	86
Muxiba SULAYMONOVA. Tasviriy san'atning shaxs ma'naviy kamolotida tutgan o'mi .....	89
Alisher SHIRINOV. Tasviriy san'atni o'qitishda borliqni idrok etish mashg'ulotlari .....	91
Sadoqat SHODIYEVA. Arxitektura yodgorliklarda tasviriy va amaliy san'atni qo'llamishi .....	94
Nozima ASLANOVA. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning badiiy va axborotli matmlar mazmunini anglash va uni izohlash malakalarini rivojlantirish .....	97
Mohinur JALOLOVA. Dimy binolarda bezak san'ati .....	100
Maxbuba KARIMOVA. Xalq hunarmandchiligi darslarida amaliy bezak san'ati mashg'ulotlarini o'rgatish metodikasi .....	103
Jo'rabeck YARASHEV, Maftunabonu AKRAMOVA. O'rta ta'lim maktablarda musiqaning muammo va yechimlari .....	106
Журабек ЯРАШЕВ, Нодира ШАДМАНОВА. Вопросы музыкальной гармонии в наследии просветителей IX-XII веков и их гуманистическое значение для культуры молодого поколения .....	108
Jo'rabeck YARASHEV, Maxfuza KAMBAROVA. Zamonaivi pedagogikada kreativlik tushunchasi .....	112
Maxfuza KAMBAROVA. Ummumta'lim maktablarida musiqa darslarining nazariy asoslari .....	117
Jo'rabeck YARASHEV, Munisa RIZOYEVA. Musiqa madaniyati darslarida stilizatsiya uslubini turli usullarda qo'llashning mazmuni .....	120
Zarnigor ALAYEVA. Yoshlarni musiqa ta'limi orqali milliy istiqlol g'oyalari ruhida tarbiyalash .....	122

Oybek SHOMURODOV

Buxoro davlat universiteti

tasviriy san'at va muhandislik grafikasi

kafedrasi katta o'qituvchisi

---

## O'RTA MAKTAB TASVIRIY SAN'AT FANIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

---

*Magolada respublikamiz umumta lim maktablarida chizmachilikni o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalinish muammolari va ularni hal etish yo'llari haqida so'z boradi.*

*Kalit so'zlar: o'rta maktab, kompyuter, texnologiya, tasviriy san'at, chizmachilik, electron darslik.*

*В статье рассматриваются проблемы использования компьютерной технологии в процессе преподавания черчения в общеобразовательных школах Республики и пути их решения.*

**Ключевые слова:** *буз, компьютер, технология, изобразительное искусство, рисование, электронный учебник.*

*The article deals with the problems of using computer technologies in the process of teaching drawing in secondary schools of the republic and the ways of their solution.*

**Key words:** *high school, computer, technology, fine arts, drawing, electronic textbook.*

**Kirish.** Kompyuter tekniqasi tasvirlarini almashtirish jarayonida bajariladigan grafik amallarni animatsiyali tasvirlar yordamida ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarning abstract tushunchalarni oson o'zlashtinshlariga ko'maklashadi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

80-90-yillarda "Mashinaviy grafika"ni fan sifatida o'qitish va shu fan bo'yicha pedagogik kadrlar tayyorlash maqsadida Buxoro davlat pedagogika instituti (hozirgi Buxoro davlat universiteti)ning "Informatika" va "Chizma geometriya va chizmachilik" kafedrasining bir guruh olimlari tomonidan "Informatika va mashinaviy grafika" fani bo'yicha o'quv darsligi tuzildi (Sharipov T., Yadgarov Dj., va boshqalar Informatika va mashinaviy grafika. Ushbu dastur pedagogikaga ixtisoslashgan institutlar va kollejlar uchun. - T., 1986.- 8b.). Dastur O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanib, foydalanishga tavsiya etildi. 1986-yildan boshlab "Informatika va mashinaviy grafika" fan sifatida sobiq ittifoqda birinchi bo'lib "Chizmachilik va tasviriy san'at" mutaxassisligi talabalariiga o'qitala boshlandi. Bu fanni o'qitishga doir ikkita o'quv qo'llamma ("Shaxsiy kompyuter va mashinaviy grafika". - 7b.t; "Mashinaviy grafika elementlari" - 4 b.t) va uni o'qitish metodikasi bo'yicha respublika jurnallarida bir necha maqola e'lon qilindi.

**Asosiy qism.** Chizma geometriya va chizmachilik fanida proyeksiyalash bilan bog'liq jarayonlarni kompyuterda harakat (animatsiya)li vositalardan foydalinish orqali o'qitishning samaradorligi oshishiga erishildi. Bu fanlardan amaliy mashg'ulotlar "Yamaha" kompyuteri yordamida "Beysik" tilida yozilgan dasturlar asosida olib borildi va bo'lajak o'qituvchilar maktabda chizmachilikni o'qitishda kompyuterdan foydalana olishga tayyorlana boshlandi. Biroq umumiy ta'lim o'rta maktabida chizmachilikni o'qitish jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalishning ilmiy-metodik jihatlan haligacha tadqiq qilinmagan.

Haqiqatdan ham bugungi kunda respublikamizda ilm-fanning jadal taraqqiy qilishi va bilmalarning tez yangillanishi, yangi texnologiyalarining kirib kelishi, zamonaevi axborot-kommunikatsiya tizimining barcha soha, jumladan, ta'lim jarayonida ta'tbiq etilishi, kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish davr talabidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kompyuterlashtirishning yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" to'g'nsidagi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishning yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risi" dagi qarorlari fikrimizning dalilidir.

Hozirgi kunda zamonaevi darsga juda katta talablar qo'yilmoqda. Bu talablardan biri dars jarayonida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan o'z o'mida va oqilona foydalishdir. Ammo umumiy o'rta ta'lim muktab chizmachilik fanida informatsion texnologiya va elektron qo'llanmalardan foydalishning amaliy va nazariy asoslari haligacha to'liq o'matilmagan.

Elektron darslik yoki o'quv qo'llanmasi deganda keng ma'noda axborotlarning yangi avlod, an'anaviy darsliklarning afzalliklarini kompyuter texnologiyasi bilan uyg'unlashtirishga yordam beradigan, o'quv axborotlarning ko'p variantli (musiqa, suxandon ovozi, matn, tasvir, multimedia) didaktik tizimini

tushunamiz. Elektron qo'llanma maxsus ssenariy asosida tayyorlanadi. Didaktik tizimli elektron darslik tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Musiqa – elektron darslikning alohida qismi bo'lib, elektron darslikning mavzusi va mazmunidan kelib chiqib unga uyg'unlashgan musiqa tanlanadi.

Matn – har bir elektron darslik, albatta tegishli matn bilan berilishi, unda o'quvchi bilib oladigan ilmiy tushunchalarning ta'nnifi ixcham va lo'nda ifodalanishi, har bir paragrafga aloqador sarlavhalar ostida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tayanch tushunchalarning ta'rifi berilishi kerak.

Suxandon so'zi – har qanday o'quv fanidan ishlab chiqariladigan elektron darsliklarda suxandon ovozidan foydalilanadi, ammo uning so'zi matnni aynan takrorlanmasligi kerak. Agar o'quvchi suxandonning so'zini bir eshitishda tushunmasa, uni takror tinglash imkonni bo'lishi lozim.

Video tasvir – har qanday elektron darslikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Tasvirlar ikki yoki har xil rangli qilib tayyorlanishi, u matndagi ilmiy va boshqa tushunchalarning mohiyatini ochib berishi, matn bilan ko'rgazmaning uyg'unligini ta'minlashi va darslikka kiritiladigan ko'rgazmali (illustrativ) materiallarga qo'yiladigan barcha texnik va didaktik tablolar darajasida bo'lishi lozim. Har bir tasvir matn ifodalangan betda joylashishi kerak, aks holda o'quvchining fikri chalg'ishi mumkin.

Multimedia – elektron darsliklarning xarakterli xususiyatlaridan eng muhim, u harakatning mavjudligini ifoda etadi, aks holda u oddiy darslikdan farq qilmasligi mumkin.

Harakat (animatsiya) - multimedia, multiplikatsiya usullaridan foydalanan amalga oshiriladi. Ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlarni, masalan, fizikadan ichki yomuv dvigateli silindridagi porshenning harakati, astronomiyadan kunning tunga aylanishi yoki chizmachilikdan proyeksiyalash usullari, kesim va qirqimlar, tasvirlarni almashtirishga oid mavzular ko'rsatmalilikka, ayniqsa, multiplikatsiyaga muhtoj.

Multiplikatsiya – bu harakatni sekin-asta ayrim-ayrim qismlarga ajratib, kerak bo'lsa kadimi to'xtatib hodisa va jarayonlar namoyish qilinadigan ushub bo'lib, uni multfilma qiyoslash mumkin.

Mazkur usulning afzallik tomoni shundaki, biron jarayonning mohiyatini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydigan hollarda, ya'ni abstrakt tushunchalarni o'quvchilar tomonidan osonroq tushumbib olishlari bilan izohlanadi.

Shunday qilib, elektron darslik musiqa, matn, suxandon so'zi, rangli tasvirlar, multimediani o'z tarkibiga mujassamlashtirgan zamonaviy didaktik tizmdir. Ammo bunday darslikda hamma komponentlar ishtiroy etishi kerak, degan fikr kelib chiqmasligi lozim. Chunki u foydalanan usuliga ko'ra matnni ma'lumotnomha xarakteridagi yoxud mabkab darsligining jonlantirilgan elektron variantlari kabi bir qancha turlarga bo'linishi mumkin. Ammo an'anaviy darslikning elektron versiyasini elektron darslik deb tushunmaslik kerak. Elektron o'quv qo'llanmalarning barcha turlari uchta asosiy belgi bilan xarakterlanadi.

1. O'quv materiallari kichik qismlarga (ma'lum miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan hamda mantiqiy jihatdan tartib bilan joylashtirilgan paragraflarga) bo'linishi, bundan oldingi bo'limni bilmay turib keyingisiga o'tmaslik.

2. Har bir paragraf oxirida o'quvchining materialini qanday o'zlashtiriganligini aniqlash uchun sinov savollarning qo'yilishi, o'quvchi bu savolga tezlik bilan javob bera olishi, aks holda u keyingi paragraflardagi ma'lumotlarni o'zlashtira olmasligi.

3. O'quvchi sinov savoliga javob berganidan keyin uning to'g'ri yoki noto'g'riliгини darhol sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi, savollar axborotning tub ma'nosini ochib berishi uchun o'quvchini o'ylashga va mustaqil xulosalar chiqarishga majbur qilishi, boshqacha aytganda, o'quvchi bilim va malakalarini ongli ravishda egallashi uchun o'z bilimi haqida kompyuterdan signallar olib turishi va shu yo'l bilan o'z xarakterini boshqarishi kerak.

O'quv axborotlami izlab topish erkinligi bilan (matnni o'qish, uning ustida ishslash, axborotlarning boshqa manbalariga chiqishi va hokazo) elektron darslik an'anaviy darsliklardan farq qiladi. Shu boisdan elektron darslikning yuqorida ko'rsatib o'tilgan xususiyatlarga qarab unga ta'limning interfaol vositasi sifatida qaraladi. Ayrim fanlardan mabkab darsligi chiziqli usulda yoziladi. Buning ma'nosi shuki, masalan, birinchi betdag'i matn ikkinchi betda qaytarilmaganidek, axborotlar ketma-ket joylashtiriladi, ular takrorlanmaydi. Elektron darslikda esa o'quv materiallari muayyan boshqariladigan bloklarga bo'lib konsektiv usulda beriladi.

Konsentrik tizimda yozilgan darslikda o'quv materialining alohida qismlariga bir necha marta murojaat qilinishi mumkin. Bu, albatta, o'tilganlarni takrorlash degan gap emas, balki mavzuga kompleks yondashgan holda uni chuqurlashfirish, o'quvchilarga hosil bo'lgan bilim va ko'nikmalarini faollashtirish demakdir. Elektron darslik o'zining interfaol xususiyati bilan an'anaviy darslikdan farq qiladi.

Har bir o'qituvchida elektron darsliklarni qaysi fanlardan, qaysi hajmda foydalaniш mumkin, degan haqli savol tug'ilishi mumkin. Elektron darslik muktabda o'qitiladigan ko'pchilik o'quv predmetlaridan, ayniqsa, chizmachilikdan yaratilishi zarur. Chunki o'quv predmatining xususiyatiga ko'ra chizmachilik

ko'rgazmalilikka, ya'ni abstrakt tafakkurning rivojlanirishiga juda muhtoj. Elektron darslik biror o'quv predmetining to'la kursini qamrab olishi yoki abstrakt tafakkurni oydinlashtirish zarur bo'lgan ayrim materiallarni, multimedia (animatsiyali kadrlar) versiyasini o'z ichiga olishi mumkin.

Har qanday elektron darslikka xos xususiyat quydagi lardan iborat:

- ta'lim jarayonida teskari aloqaning ta'minlanishi (kompyuterdan o'quvchiga yuboriladigan axborot oqimi to'g'ri aloqa, o'quv materialini o'zlashtirishdagi kompyuterga kiritiladigan axborot teskari aloqa deylildi);

- o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatining mavjudligi;
- o'quv jarayonining ko'rgazmaligini oshirishi;
- axborotlarni turli manbalardan qidirish mumkinligi;
- o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarini modellash mumkinligi;
- jamoa va yakkama-yakka o'qitishda undan foydalananish mumkinligi;
- ta'linda o'quvchilarini testdan o'tkazish imkoniyatlarining kengligi;
- ta'linding interfaol usul va metodlarning mavjudligi.

Muhokamalar va natijalar. Hozirgi kunda kompyuter texnologiyasi shu darajada rivojlanib ketdi, hali amaldagi kompyuterlardan foydalinishga ulgurmay "Pentium- 4" rusumli zamonaviy kompyuterlar paydo bo'la boshladi. Natjada respublika mакtablarida foydalaniyatgan "Agat", "Pravez", "Yamaxa" va boshqa xildagi kompyuterlarni zamonaviy kuchli kompyuterlar siqb chiqarmoqda. Keyingi yillarda multimedia va elektron proektorlarning paydo bo'lishi kompyuter grafikasiga yangicha yondashishga va chizmachilik darslarida bu texnikadan foydalinishni taqazo etmoqda. Ayniqsa, 8-sinfda proyeksiyalash usullari, ko'minishlarni chizish, yaqqol tasvirlash, yasashda kompyuterden foydalananish mavzuz mohiyatini ochib berish bilan birga darsda o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlaniradi. 9-sinfda qator o'quv materiallari, jumladan, kesimlar, ularning tasmifi, kesimlarni hosil qilish, qirqimlar bo'yicha hamma mavzularni multimediaidan foydalaniб o'tishga har doim ham ehtiyoj sezilgan va shu sababli kesim va qirqimlar mavzularini multimedia vositasida o'qitishga e'tibor qaratildi.

8-9-sinfda darslarni kompyuterden foydalanan rejlashtirishda manba sifatida 2006-yilda "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan A. Umronxo'jayevning "Chizmachilik - 8" va "Chizmachilik - 9" darslididan foydalinishga harakat qilindi. 8-sinf chizmachilik darsligi olti bobdan iborat bo'lib, so'z boshi, chizmachilikka kirish, geometrik yasashlar multimediani talab qilmaydi. Chunki bu mavzular birinchidan, tafsify xarakterga ega, ikkinchidan, ularning ko'pchilik qismi texnologiya sohasiga kiruvchi texnik mehnat va matematika darslarida ko'rib chiqilgan.

Proyeksiyalash usullari bo'limi chizmachilik fanining puxta o'zlashtirilishi proyeksiyalash asoslari mavzusining o'rganish darajasiga bog'liq, chunki u proyeksiyalash usullari kursining nazariy asosini tashkil etadi. Bu bo'lim mavzulari darslikda asosan to'rtta (13, 14, 15, 16) paragrafni o'z ichiga oladi:

13-\$. To'g'ri burchakli proyeksiyalash.

14-\$. Bitta hamda ikkita va uchta o'zaro perpendikulyar proyeksiya tekisliklariga proyeksiyalash.

15-\$. To'g'ri burchakli proyeksiyalar sistemasida chizmalar.

16-\$. Asosiy geometrik jismlarning proyeksiyalar.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan paragraflarga tegishli mavzularni va ularga tegishli ayrim rasmlarni kompyuter ekranida animatsiyali kadrlar tayyorlash imkoniyatlariга to'xtalamic. 8-sinf darsligining yuqorida eslatilgan paragraflarda ko'rsatilgan proyeksiyalash jarayonlari animatsiyali kadrlar yordamida bayon etildi. Elektron qo'llanma 3D Studio Max3.0 va 3D Studio Max8.0 kompyuter dasturida bajarildi. 8-sinf proyeksiyon chizmachilik bobi bo'yicha 60tadan ortiq animatsiyali kadrlar tayyorlandi.

9-sinf chizmachilik darsligida mavjud "Kesim va qirqim" mavzusiga doir 30ga yaqin animatsiyali kadrlar tayyorlandi. Mazkur kadrlarning mazmuni quydagi lardan iborat: kesim hosil qilish, valning turli xil kesimlarni hosil qilish, qirqim bajarishda kesuvchi tekislik vaziyatini tanlash; horizontal, frantal va profil qirqim hosil qilish; kesim va qirqimning farqini tasvirda ko'rsatish, pog'onali va siniq murakkab qirqim hosil qilish va uni bajarish. Mualliflarga 8-9-sinf chizmachilik fanining proyeksiyon chizmachilik bo'limi uchun tayyorlangan 80dan ortiq animatsiyali kadrlar uchun O'zbekiston Respublikasi patent idorasini tomonidan guvohnoma berilgan.

8-9-sinflar uchun mualliflar tomonidan tayyorlangan elektron qo'llanma (animatsiyali kadrlar tizimi) materiallari qator yillar davomida Buxoro viloyatining bir qator mакtablarida, jumladan, Qorako'l tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar mакtab internatiда, 19-son umumiy o'rta ta'lim mакtabida Jondor tumanidagi 8-maktabda, Buxoro shahridagi 10-maktabda tajriba-sinovdan o'tkazildi. O'tkazilgan dars jarayonlarda asosiy e'tibor tasvirlarni almashtirishga doir mavzularga qaratildi va tajriba guruhi o'quvchilarning o'zlashtirishi nazorat guruhiga nisbatan 9-10%dan yuqori bo'ldi.

Tajriba – sinov natjasida quydagi ijobiy natijalarga erishildi:

• o'quvchilar bilish jarayonining rivojlanishi va takomillashuvi sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishildi;

• o'quvchilarning tashabbuskorlik sifatlarini rivojlantirishda, mustaqillikni tarkib toptirishda ijobiya ta'sir ko'rsatdi;

• kompyuter vositasida o'qitish o'quvchilarning bilish faoliyati va fazoviy tasavvurini takomillashtirishda samarali vosita ekanligi tasdiqlandi.

Xulosa. Pirovardida shumi takidlash joizki, respublikamiz mакtablарida chizmachilik ta'limi jarayonida kompyuter texnologiyasidan foydalamanish bugungi kunda zamon talablari darajasida deb bo'lmaydi. Bu muammoning asosiy sabablardan biri kompyuter texnologiyasidan samarali foydalana oladigan o'qituvchi kadrlarning yetishmasligi bo'lsa, ikkinchisi, ayrim mакtablar hozirgacha zamonaviy kompyuterlar bilan ta'minlanmagandanidir. Bizningcha, muammoning ijobiy yechimi chizmachilik fani o'qituvchilarini kompyuter texnologiyasidan foydalana bilish bo'yicha qayta tayyorlash va barcha mакtablarni zamonaviy kompyuter texnikasi bilan jihozlashdan iborat.

#### Adabiyotlar

1. Маматов Д.К. Роль Компьютерной графики в развитии космического воображения студентов // Вестник науки и образования. 99:21-2 (2020), С. 37-2. Мусинова А., Маматов Д. Самостоятельная работа студентов и её значение в формировании специалиста // Вестник интегративной психологии. 16:16 (2018), С. 169-172.
3. Ялгаров Н.Дж., Хакимова Г.А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистан // Молодой учёный. № 15 (201), 2018, С. 272-275.
4. Odilova M.O. et al. Improving the pedagogical potential of biology teachers using computer programs // International Engineering Journal For Research & Development. 5:9 (2020), С. 4-4.
5. Aminov A.Sh., Xodjayeva N.Sh. Development of design skills of high school students // International Engineering Journal For Research & Development. 5:7 (2020), Р. 5.
6. Ялгаров Н.Дж., Хакимова Г.А. Самобытное творчество народных мастеров Узбекистан // Молодой учёный. № 15 (201), 2018, С. 272-275.